



OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

TA'LIM TIZIMI MENEJMENTI
VA
TA'LIM SIFATI MENEJMENTI

2024

LIB.BIMM.UZ

OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

**OLIV TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**“OLIV TA'LIM TIZIMIDA KORRUPSIYA VA MANFAATLAR
TO'QNASHUVINI OLDINI OLISH XAMDA ULARNI BARTARAF ETISH
USULLARI”
(“Ta'lim tizimi menejmenti” va “Ta'lim sifati menejmenti”
yo'nalishlari uchun)**

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Toshkent – 2024

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: **B.I. Ismailov** - yu.f.d., professor ;

Taqrizchi: **Sh. Qobilov** - IIV Akademiyasi professori, p.f.d.

O‘quv-uslubiy majmua Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(“28” dekabr 2023-yildagi 5/4 -sonli bayonoma)

MUNDARIJA

- 1. O‘QUV MODULINING O‘QUV DASTURI**
- 2. KIRISH. O‘QUV PREDMETINING MAQSADI VA VAZIFALARI**
- 3. O‘QUV PREDMETINI TINGLOVCHI TOMONIDAN O‘ZLASHTIRILISHIDAN KUTILAYOTGAN NATIJALAR (KOMPETENSIYALAR)**
- 4. O‘QUV MODULINI O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI.**
- 5. MAVZU 1. MAVZUNI O‘RGANISHDAN MAQSAD VA KUTILAYOTGAN NATIJALAR (KOMPETENSIYALAR)**
- 6. MASHG‘ULOT REJASI (SSENARIYSI).**
- 7. GLOSSARIY (ASOSIY TUSHUNCHALAR).**
- 8. MAVZU 2. MAVZUNI O‘RGANISHDAN MAQSAD VA KUTILAYOTGAN NATIJALAR (KOMPETENSIYALAR)**
- 9. MASHG‘ULOT REJASI (SSENARIYSI).**
- 10. GLOSSARIY (ASOSIY TUSHUNCHALAR).**
- 11. FOYDALANGAN ADABIYOTLAR**

I. ISHCHI DASTUR

ISHCHI DASTUR

Kirish

So‘nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirishga, jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirishga yo‘naltirilgan tizimli choralar ko‘rilmogda.

Korrupsiyadan holi jamiyat va davlatni yaratish mamlakat taraqqiyotining mustahkam kafolati bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 7-dekabr kuni Konstitutsiyamizning 26 yilligiga bag‘ishlangan marosimda so‘zlagan nutqlarida “Korrupsiya bilan hech qachon maqsadimizga yerisha olmaymiz” deb ta’kidlagan yedilar.

Davlatimiz rahbari tomonidan oliy ta’lim tizimiga qaratilayotgan alohida ye’tibor va g‘amxo‘rliklarga qaramasdan, sohada korrupsiya holatlari, jiddiy muammo va nuqsonlar hamon saqlanib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi va “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunlarida ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta’lim va tarbiya belgilangan davlat ta’lim standartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning bugungi sharoitida korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash davlat va jamiyat oldidagi muhim vazifalardan biri sanaladi.

Uni amalga oshirish mustahkam huquqiy asos va samarali mexanizm joriy yetilishini talab qiladi.

Shu munosabat bilan, 2017-yil 3-yanvarda O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” gi O‘RQ–419-sonli Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonunning 16-moddasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir huquqiy tarbiya va ta’limni, ilmiy-ama-liy tadbirlarni tashkil yetish, o‘quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlarni ishlab chiqish yo‘li bilan zarur chora-tadbirlar ko‘rishi lozimligi belgilangan.

Oliy ta’lim sohasida korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash hamda bartaraf qilishga qaratilgan ishlar hamda amalga oshirish mexanizmlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5729-son Farmoni bilan tasdiqlangan oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida “Korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirish belgilab olindi. Ushbu loyiha doirasida oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida izchil va maqsadli ishlar yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining quyidagi Farmon va Qarorlari talablaridan kelib chiqib, ya’ni 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6257-son Farmoni bilan tasdiqlangan, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2021/2022-yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi, 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish

aoliyatini samarali tashkil yetishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–5177-son Qarori, 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf yetish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son Qarori, “Jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy yetish to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-noyabrdagi PF-257-son Farmoni, hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 829-son Qarori ustuvor vazifalari, mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta‘lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan “Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish” bo‘limi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvi va odob-axloq qoidalari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini doimiy oshirib borishni nazarda tutadi.

Modulning maqsadi va vazifalari:

Modulning maqsadi: O‘quv predmetining maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish borasida asosiy strategiyalar, nazariyalar, yondashuvlar shakllanishi, ularga xalqaro huquqiy normalar ta‘siri, Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash uslubiyoti, korrupsiya va iqtisod, korrupsiya va sotsiologiya, madaniy, siyosiy, ijtimoiy va boshqa faktorlar, O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashning xalqaro va milliy huquqiy asoslari shakllanishi va rivojlanishi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashga, amaliyotda mavjud bo‘lgan muammolarni hal qilish xususida fikr yuritish, muammoli vaziyatlarning yechimini izlab topish, ularning kasb mahoratlarini oshirish borasida tinimsiz mehnat qilishdek ko‘nikmalarni shakllantirish va takomillashtirishdan iborat. qaratilgan.

Modulning vazifalari:

- korrupsiyani oldini olish va qarshi kurashish borasida asosiy strategiyalar to‘g‘risida ma‘lumotga ega bo‘lish;
- korrupsiya darajasini belgilovchi omillar, bu boradagi xavf xatarlar korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi asosiy tushuncha va manba‘alarni anglash;
- korrupsiyani oldini olish va qarshi kurashish borasida amalga oshirish mexanizmlarini qo‘lly bilish.
- amaliyotda mavjud bo‘lgan muammolarning yechimi bo‘yicha tadqiqotlarni amalga oshirish hamda amaliy takliflar, tavsiyalar va qo‘llanmalarni ishlab chiqish;
- mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo‘nalishlari, bu borada amaldagi qonunchilikka kiritilayotgan yangiliklarni yetkazish.

Yuqoridagi vazifalarni bajarish davlatimizda korrupsiyaviy jinoyatlarga kurashish samaradorligi va ta‘sirchanligini oshirish orqali qonun ustuvorligini ta‘minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini,

O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tizimini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishning yangi zamonaviy ko‘nikmalarini yaratishdan iborat.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:

“Ta’lim boshqaruvida tizimli tahlil” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

tinglovchi:

- tizimli tahlil va tizimli yondashuvning asosiy tushunchalari;
- tizimli tahlil ob’ekti;
- tizimli tahlilning vazifalari va prinsiplari;
- tizimli tahlilning rivojlanish va shakllanish bosqichlari;
- tizimli tahlil metodologiyasi;
- tizimli tahlilda miqdoriy va sifatiy yondashuvlar haqidagi **bilimlarga ega**

bo‘lishi;

- muammolarni aniqlash va murakkab muammolarni hal qilish;
- maqsad va vazifalarni belgilash;
- tizimli tahlil qilish metodologiyasidan foydalanish;
- tizimli tahlil qilish tamoyillaridan foydalansh: dekompozitsiya, tahlil va sintez;
- belgilangan vazifalar bo‘yicha turli xil muqobil yechimlarni yaratish

ko‘nikma va malakalarini egallashi;

- oliy ta’limdagi menejment muammolarini xal qilish;
- tizim taxliligiga asoslangan tizim tuzilishini yaratish;
- oliy o‘quv yurtidagi murakkab muammolarni aniqlash va hal qilish uchun tizimni tahlil qilish ussularidan foydalanish **kompetensiyalarni egallashi lozim.**

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar:

“OTMda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, blis-so‘rovlar, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interfaol ta’lim metodlarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi:

“OTMda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish” moduli bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘quv rejasidagi “Oliy ta’limda strategik qarorlar qabul qilish va jamoatchilik nazorati”, “Oliy ta’limda inson resurslarini boshqarish” kabi modullar bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni:

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar OTM da korrupsiyaga qarshi kurashishga oid normativ-huquqiy asoslarini o‘rganish, ularni tahlil etish, amalda

qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya o‘quv yuklamasi		
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg‘ulot
	OTMda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish vazifalari va huquqiy omillari.	2	2	
	OTMda korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslari hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasini pasaytirishning chora-tadbirlari.	2		2
	Jami:	4	2	2

NAZARIY MASHG‘ULOT MAZMUNI

1-MAVZU: OTMDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH HAMDA MANFAATLAR TO‘QNASHUVINI OLDINI OLISH VAZIFALARI VA HUQUQIY OMILLARI. (2 soat)

Oliy ta’lim tizimida korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish vazifalari, mazmun-mohiyati, yuzaga kelish sabablari, ijtimoiy-huquqiy omillari.

Oliy ta’lim tizimida manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilganlik holatlarining ko‘rinishi, manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan sohalar, ularni oldini olish va bartaraf etish uchun qo‘llanilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlarning mazmun-mohiyati, fuqarolarni ishga qabul qilish jarayonlarini nazoratga olinishini ta’minlash (*nomzodlarni tekshirish tartibi*), ushbu sohada qo‘llanishi lozim bo‘lgan xorij tajribasi.

AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI

2-MAVZU: OTMDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH ICHKI TIZIMINING HUQUQIY ASOSLARI HAMDA KORRUPSIYAVIY XAVF-XATARLAR DARAJASINI PASAYTIRISHNING CHORA-TADBIRLARI. (2 soat)

Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslarini

shakllantirishda xalqaro tajribaning ahamiyati, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni majburiy baholash, korrupsiya xavfi yuqori hisoblangan lavozimlar ro'yxatini shakllantirish, xavflar darajasini pasaytirish chora tadbirlarini amalga oshirish tartibi.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi: ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash); davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish); bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

“KWHL” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni tizimlashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

Know – nimalarni bilaman?

Want – nimani bilishni xohlayman?

How - qanday bilib olsam bo‘ladi?

Learn - nimani o‘rganib oldim?.

“KWHL” metodi	
- <i>Nimalarni bilaman:</i> -	<i>Nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak:</i>
3. Qanday qilib bilib va topib olaman: -	<i>Nimalarni bilib oldim:</i>

“W1H” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni tizimlashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo'yicha qo'yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

What?	Nima? (ta'rifi, mazmuni, nima uchun ishlatiladi)	
Where?	Qayerda (joylashgan, qayerdan olish mumkin)?	
What kind?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	
When?	Qachon? (ishlatiladi)	
Why?	Nima uchun? (ishlatiladi)	
How?	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to'ldiriladi, tahrirlash mumkin)	

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• кучли томонлари
W – (weakness)	• заиф, кучсиз томонлари
O – (opportunity)	• имкониятлари
T – (threat)	• хавфлар



Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.



Test

•

Muammoli vaziyat

Tushuncha tahlili (simptom)

Amaliy vazifa

“SCAMPER” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod muammolarni bartaraf etish bo‘yicha yangi innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan. SCAMPER “tez yugurish” degan ma’noni anglatadi. SCAMPER tushunchasi kengaytmasi (7 ta)ning har biridan 7 qatordan va 3 ustundan iborat jadval yaratish talab etiladi.

SCAMPER

SCAMPER НАЗОРАТ САВОЛЛАРИ

S Substitute? - Заменить? Алмаштириш

E Combine? - Комбинировать? Бирлаштириш

A Adapt? - Адаптировать? Мослаштириш

M Modify? = Magnify? - Модифицировать? Модификация

P Put to other uses? - I Бошқа соҳаларда қўллаш

E Eliminate or minify? - қисқартириш

R Revers? = Rearrange? - тартибини ўзгартириш

32

Ta'lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish

SCAMPER savollari	SCAMPER savollari (yangi g'oyani ishlab chiqish)	Ta'lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish
S	Nima bilan almashtirish mumkin?	
C	Nima bilan birlashtirish mumkin?	
A	Nimaga moslashtirish kerak?	
M	Qanday yaxshilash mumkin?	
P	Nimalarni o'zgartirish mumkin? (shakl, tur, belgi, rang va boshqalar)	
E	Yana qanday holda qo'llash mumkin	
R	Nimani qayta tiklash mumkin?	



III. NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

III. NAZARIY VA AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: OTMDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH HAMDA MANFAATLAR TO‘QNASHUVINI OLDINI OLIISH VAZIFALARI VA HUQUQIY OMILLARI. (2 soat)

Oliy ta’lim tizimida korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish ichki tizimining asosiy vazifalari, mazmun-mohiyati, yuzaga kelish sabablari, ijtimoiy-huquqiy omillari.

Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslarini shakllantirishda xalqaro tajribaning ahamiyati, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni majburiy baholash, korrupsiya xavfi yuqori hisoblangan lavozimlar ro‘yxatini shakllantirish, xavflar darajasini pasaytirish chora tadbirlarini amalga oshirish tartibi.

Oliy ta’lim tizimida korrupsiya va unga oid huquqbuzarlik harakatlarini sodir etganlik, Odob-axloq kodeksi hamda ichki tartib qoidalariga rioya etmaslik holatlari yuzasidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish, materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim qilish tartibi, xizmat tekshiruvi materiallarini rasmiylashtirish, ularni saqlash va arxivlarga topshirish tartib-qoidalari.

1.1. Mavzuning maqsadi: tinglovchilarda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida huquqiy asoslari shakllanishini tushuntirish, yoritish va ularni qo‘llay olish ko‘nikmasini hosil qilish

1.2. Mavzudan kutilayotgan natijalar:

Mavzuni o‘zlashtirganidan so‘ng tinglovchi quyidagi bilimlarga ega bo‘ladi:

1) Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida asosiy nazariya, yondashuv, choralar bilan tanishish.

2) Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid huquqiy asoslar shakllanishi va mustahkamlanishi, O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashishning institutsional tizimi rivojlanishi, korrupsiyaga qarshi kurashish borasida O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senatining korrupsiyaga qarshi kurashish borasida vakolatlari. “Parlament nazorati to‘g‘risida”gi qonuni mazmuni va mohiyati. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarida Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari bo‘yicha qumitalari tashkil etilishi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, Vazirlar Mahkamasining korrupsiyaga qarshi kurashish borasida vakolatlari, vakolatli organlar vazifalari to‘g‘risida ma’lumotlarga ega bo‘lish.

Mavzuni o‘zlashtirganidan so‘ng tinglovchi quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi: korrupsiyaga qarshi kurashish borasida xalqaro huquqiy asoslarini qo‘llay olish.

1.3. Mavzuni o'rganishga ajratilgan vaqt:

Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot	Mustaqil ta'lim	Jami
1 soat	1 soat		2 soat

1.4. Mashg'ulot rejasi (ssenariysi)

Mashg'ulot bosqichlari	Mazmuni	Ta'lim metodlari	Ta'lim vositalari	Ajratilgan vaqt (min.)
Kirish	Mavzuning nomlanishi, mavzuning mohiyati va ahamiyati, dolzarbligi, maqsadi, shu jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish borasida xalqaro huquqiy asoslari ta'rifi	Ma'ruza	AKT texnologiyalari, markerlar hamda katta va kichik hajmdagi qog'ozlar zarurat bo'lganda doskadagi chizmalar,	2
Asosiy qism	Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida asosiy yondashuvlar xususida ma'ruza shaklida olib boriladi hamda ma'ruza davomida tinglovchilarni savol-javob qilish orqali o'tkaziladi.	Ma'ruza, tinglovchilarni fikrlarini eshitish	Kazuslar AKT texnologiyalari, markerlar hamda katta va kichik hajmdagi qog'ozlar zarurat bo'lganda doskadagi chizmalar	4
Yakunlovchi qism	Mavzuning yoritish natijasi bo'yicha xulosa qilish, dars natijasi bo'yicha tinchlovchilar qanday ko'nikmaga ega bo'lganligini muhokama qilish	Savol-javoblar tarzida		8

1.5. Glossariy (Asosiy tushunchalar):

Agentlik - biror idora, muassasa yoki korxonaning joylardagi (mahalliy) bo'limi, shuningdek, axborot yig'ish va tarqatish, vositachilik qilish vazifasidagi

ba'zi muassasalar nomi.

Diskretion vakolatlar - mazmunidan chegaralarini aniqlashning imkoni mavjud bo'lmagan vakolatlar.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlar – davlat hokimiyati organlari faoliyat olib borishi, davlat xizmatchilarining faoliyati jarayonida yuzaga keladigan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlikni sodir etish vaziyatini yaratadigan hamda ular natijasida noxush oqibatlar keltirib chiqaradigan holatlar, omillar va harakatlar.

Korrupsiya xavf-xatarlarini idoraviy xaritasi – davlat organi, uning hududiy tuzilmalarida va idoraviy mansub tashkilotlarda korrupsiya xavf-xatarlarini baholash natijasiga ko'ra tuziladigan hamda davlat xizmatchilarining soha faoliyati, lavozimlari va ularning korrupsiya xavf-xatarlariga ko'proq moyil bo'lgan funktsiya (vakolat)larining umumiy ro'yxati, shuningdek ular bo'yicha minimallashtirish bo'yicha choralarini o'z ichiga oladigan hujjat.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarini baholash – davlat organining amalga oshirayotgan funktsiyalari (vakolatlari)ni tahlil qilish va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etilishiga sharoit yaratishi mumkin bo'lgan korrupsiya xavf-xatarlarini aniqlash hamda ularni minimallashtirishga qaratilgan samarali va natijali chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo'yicha faoliyat.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari - aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish; davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish; korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash.

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari - korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralarini ko'rish uchun mas'ul bo'lgan muassasalar hisoblanadi. Ular O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5177-son qaroriga asosan joriy etilgan.

Korrupsiyaviy jinoyatlar xususiyati - maxsus subyekt (mansabdor shaxs) tomonidan sodir etiladi, yashirin (latent) xarakterga ega, qastdan sodir etiladi, o'zi yoki uchinchi shaxslar (qarindoshlari, yaqinlari, tanishlari va boshqala) manfaatini ko'zlaydi, guruh tarkibida (kelishilgan holda) sodir etiladi, g'arazli maqsadda (moddiy yoki nomoddiy naf ko'rish maqsadida) sodir etiladi, xizmat vakolatlari suistimol qilinadi, boshqa noqonuniy harakatlar bilan bog'liq bo'ladi.

Mansabdor shaxs — doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo'yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat'i nazar, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy-xo'jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik

ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs, xuddi shuningdek xalqaro tashkilotda yoxud chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma'muriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs.

1.6. Mavzuning maqsadi: Korrupsiyaga qarshi kurash borasida institutsional, tashkiliy-huquqiy va idoraviy tizimlar rivojlanishi to'g'risida bilimlarga ega bo'lish

1.7. Mavzudan kutilayotgan natijalar:

Mavzuni o'zlashtirganidan so'ng tinglovchi quyidagi bilimlarga ega bo'ladi:

Korrupsiyaga qarshi kurash borasida nazorat tizimlari shakllanishi.

Parlament nazorati va uning subyektlari, Parlament nazorati shakllari

Prokuratura organlari faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish tartibi.

Jamoatchilik nazorati va uning subyektlari, asosiy prinsiplari, jamoatchilik nazoratining shakllari.

Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida prokuror, davlat moliyaviy, ma'muriy, tadbirkorlik subyektlarini himoya etish sohasida nazorat tizimlari.

O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida bilimlarga ega bo'ladi.

Mavzuni o'zlashtirganidan so'ng tinglovchi quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladi:

“Parlament nazorati to'g'risida”gi 2016-yil 11-apreldagi Qonuni,

“Jamoatchilik nazorati to'g'risida”gi 2018-yil 12-apreldagi Qonuni,

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5843-son Farmoni,

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2020-yil 29-iyundagi Farmoni PF-6013-son Farmoni talablari va b. xujjatlari talablarini qo'llash.

1.8. Ma'ruza matni

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi **“Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonuni** korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solib korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari tizimlashtirdi.

Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida barcha vakolatli organlar faoliyati huquqiy tartibga solindi. Qonunga asosan O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisining korrupsiyaga qarshi kurashish borasida vakolatlari belgilandi. Mazkur faoliyati O'zbekiston Respublikasi “Parlament nazorati to'g'risida”gi qonuni asosida olib birilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatida Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari bo'yicha qumitalari tashkil etilindi. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish institutsional tizimni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro

etuvchi va sud hokimiyatlari tashkil etadi.

Huquqiy islohatlar jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, Vazirlar Mahkamasining korrupsiyaga qarshi kurashish borasida vakolatlari aniqlashtirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi tashkil etilishi

Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda 2017-yil 29-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil to‘g‘risida”gi qonunning ahamiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi vakolatlari. O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisining korrupsiyaga qarshi kurashish borasida vakolatlari. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 11-apreldagi “Parlament nazorati to‘g‘risida”gi qonuni mazmuni va mohiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatida Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari bo‘yicha qumitalari tashkil etilishi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining korrupsiyaga qarshi kurashish borasida vakolatlari. O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 29-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida” Qonuni talablari.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi vakolatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5843-son Farmoni talablari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi vakolatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5843-son Farmoni asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashkil etildi va uning korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi vakolatlari belgilandi.

Prezidentning “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6013-sonli Farmoni asosida O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi va uning hududiy kengashlari etib qayta tashkil etilishi.

1.9. Mavzuga oid slaydlar, taqdimot materiallari (elektron shaklda)

1.10 Tarqatma materiallar

O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyundagi PF-6257-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2021-2022-yillarda Korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi

1.11. “Flipped class” uchun mediamateriallar (videoma’ruza, videorolik, “doodly” va boshqalar)

1.12. Mavzu bo‘yicha nazorat topshiriqlari

Nazorat savollari:

1. Korrupsiyaga qarshi qonun qabul qilinishi qaysi xalqaro xujjat asosida amalga oshirilgan ?
2. Korrupsiyaga qarshi qonun qabul qilish kim tomonidan va nimaga asosan amalga oshirilgan ?
3. Korrupsiyaga qarshi qonun bo‘yicha qaysi idoralar vakolatli organ sifatida belgilangan ?
4. Korrupsiyaga qarshi qonunda qanday huquqiy institutlar mustahkamlangan ?
5. Korrupsiyaga qarshi kurash borasida vazifalarni amalga oshirishda qaysi davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari jalb etilishi mumkin ?

1.13. Test savollari:

1. O‘zbekiston Respublikasida “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilish masalasi qaysi normativ aktda ilk bor belgilangan ?

a. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktyabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PF-4848-son Farmonida

b. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktyabrdagi “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4850-son Farmonida

v. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5185-son Farmonida

2. O‘zbekiston Respublikasida “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun qaysi xalqaro xujjatga qo‘shilish munosabati bilan qabul qilingan ?

a. 1979-yil 17-dekabrda qabul qilingan “Huquqiy tartibotni saqlash bo‘yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor Kodeksi”

b. 1999-yil 9-dekabrda qabul qilingan BMTning “Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g‘risida”gi xalqaro Konvensiya

v. 2003-yilning 31-oktyabrdagi BMTning “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Konvensiya

g. 1999-yil 27-yanvardagi Yevropa Kengashining “Korrupsiya uchun jinoiy

javobgarlik to'g'risida"gi Konvensiya

3. Korrupsiyaning qanday turlari mavjud?

- a. ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatishdagi korrupsiya
- b. maishiy korrupsiya, xususiy sektordagi korrupsiya, davlat organlardagi korrupsiya,
- v. davlat idoralarida boshqaruvni tashkil etish jarayonidagi korrupsiya
- g. xalqaro korrupsiya, biznesdagi korrupsiya, davlat xizmatlarini ta'minlashdagi korrupsiya

4. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunda qanday atamalar belgilangan?

- a. korrupsiyaga, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik, manfaatlar to'qnashuvi
- b. jismoniy yoki yuridik shaxsning nomoddiy naf olishi, qonunga xilof ravishda foydalanish, korrupsiyaviy jinoyat
- v. korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qoidalar, shaxsiy manfaatlar,
- g. korrupsiya alomatlari, qonuniy manfaatlar o'rtasida qarama-qarshilik, deontologik huquqbuzarlik

5. "Korrupsiya" atamasi nimani anglatadi?

- a. korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etilishi mumkin bo'lgan xolatlar, fransuz tilidagi huquqbuzarlik degan ma'noni anglatadi
- b. jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi yuz berishi mumkin bo'lgan holat, ingliz tilida qarama-qarshilik degan ma'noni anglatadi
- v. korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan huquqbuzarlikning turi,
- g. buzish, tizimni izdan chiqarish, mansabdorni pora evaziga og'dirish degan ma'noni anglatadigan lotincha "corruptio" so'zidan kelib chiqqan korrupsiya alomatlari, qonuniy manfaatlar o'rtasida, deontologik huquqbuzarlik

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-martdagi "Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 62-son Qarori nima maqsadda qabul qilingan?

- a. korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etilishi mumkin bo'lgan xolatlar uchun shart-sharoitlar yaratishni bartaraf etish
- b. davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlari odob-axloqining yagona prinsiplari va qoidalarini belgilash, ularning o'z xizmat vazifalarini vijdonan va samarali bajarishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, davlat xizmatida suiiste'molliklarning oldini olish maqsadida
- v. korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan huquqbuzarlikni barvaqt aniqlash va tegishli choralar ko'rish tizimini takomillashtirish
- g. mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimini izdan chiqarish, hamda

mansabdorni pora evaziga og‘dirishni bartaraf etish

7. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari sifatida qaysi davlat organlari ko‘rsatilgan?

A. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi; O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti; korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoralararo va hududiy komissiyalar;

V. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoralararo komissiya, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyalar hamda fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari;

S. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoralararo komissiya, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyalar hamda davlat ta‘limni boshqarish organlari va ta‘lim muassasalari;

D. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi, Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi, Bosh prokuraturasi; O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati; O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi; O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi; O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti hamda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat organlari

8. Korrupsiyaga qarshi kurash borasida qaysi davlat organlari xodimlari axborot olish huquqiga ega.

a. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi; O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati; O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi; O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi; O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti hamda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat organlari hodimlari;

b. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoralararo komissiya, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyalar hodimlari;

v. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hodimlari;

s. har kim davlat organlarining tashkil etilishi va faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida, shu shaxsning o‘ziga yoki shaxslar guruhiga taalluqli bo‘lgan hujjatlarning qabul qilinish jarayonlari haqida

9. Quyidagi javoblarning qay birida Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari to‘g‘ri kursatilgan ?

a. adolatlilik, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, ochiqlik va shaffoflik, tizimlilik, davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi, javobgarlikning muqarrarlighi

b. qonuniylik, tizimlilik, javobgarlikning muqarrarlighi, adolatlilik, tenlik

v. qonuniylik, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, ochiqlik va shaffoflik, tizimlilik, davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi, javobgarlikning muqarrarlighi

g. xammasi to'g'ri

10. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Milliy kengashi shakllantirish va uning faoliyati tartibi kim tomonidan belgilanadi ?

a. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlis Senat raisi tomonidan

b. O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori tomonidan

v. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan

g. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan

d. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan

AMALIY MASHG'ULOT

2-mavzu: OTMDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH ICHKI TIZIMINING HUQUQIY ASOSLARI HAMDA KORRUPSIYAVIY XAVF-XATARLAR DARAJASINI PASAYTIRISHNING CHORA-TADBIRLARI. (2 soat)

Oliy ta'lim tizimida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilganlik holatlarining ko'rinishi, manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sohalar, ularni oldini olish va bartaraf etish uchun qo'llanilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarning mazmun-mohiyati, fuqarolarni ishga qabul qilish jarayonlarini nazoratga olinishini ta'minlash (*nomzodlarni tekshirish tartibi*), ushbu sohada qo'llanishi lozim bo'lgan xorij tajribasi.

Davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilishi va korrupsiyaviy harakatlarni sodir etilishini oldini olishga qaratilgan chora tadbirlarning tafsilotlari. Xarid Komissiyasining tarkibini tuzish bo'yicha talablar, Komissiya a'zolarining huquq va majburiyatlari. Kontragentlarni o'rganish va tekshirish tartib qoidalari.

2.1. Mavzuning maqsadi: tinglovchilarda korrupsiyaviy xavf-xatarlar, korrupsiyaviy huquqbuzarliklar oldini olish, shaffoflikni ta'minlash ko'nikmasini hosil qilish

2.2. Mavzudan kutilayotgan natijalar:

Mavzuni o'zlashtirganidan so'ng tinglovchi quyidagi bilimlarga ega bo'ladi:

- 1) Korrupsiyaviy xavf-xatarlar va boshqalar talablari mazmun-mohiyati;
- 2) Korrupsiyaviy huquqbuzarliklar oldini olish, shaffoflikni ta'minlash

Mavzuni o'zlashtirganidan so'ng tinglovchi quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladi: korrupsiyaga qarshi kurashish borasida xalqaro huquqiy asoslarini qo'llay olish.

2.3. Mavzuni o'rganishga ajratilgan vaqt:

Nazariy mashg'ulot 1 soat	Amaliy mashg'ulot 1 soat	Mustaqil ta'lim	Jami 2 soat
------------------------------	-----------------------------	-----------------	----------------

2.4. Mashg'ulot rejasi (ssenariysi)

Mashg'ulot bosqichlari	Mazmuni	Ta'lim metodlari	Ta'lim vositalari	Ajrati lgan vaqt (min.)
Kirish	Mavzuning nomlanishi, mavzuning mohiyati va ahamiyati, dolzarbligi, maqsadi, shu jumladan,	Ma'ruza	AKT texnologiyalari, markerlar	2

	korrupsiyaga qarshi kurashish borasida huquqiy asoslari ta'rifi		hamda katta va kichik hajmdagi qog'ozlar zarurat bo'lganda doskadagi chizmalar,	
Asosiy qism	Korrupsiyaviy xavf-xatarlar, korrupsiyaviy huquqbuzarliklar oldini olish, shaffoflikni ta'minlash ko'nikmasini hosil qilish xususida ma'ruza shaklida olib boriladi hamda ma'ruza davomida tinglovchilarni savol-javob qilish orqali o'tkaziladi.	Ma'ruza, tinglovchilarni fikrlarini eshitish	Kazuslar AKT texnologiyalari, markerlar hamda katta va kichik hajmdagi qog'ozlar zarurat bo'lganda doskadagi chizmalar	4
Yakunlovchi qism	Mavzuning yoritish natijasi bo'yicha xulosa qilish, dars natijasi bo'yicha tinglovchilar qanday ko'nikmaga ega bo'lganligini muhokama qilish	Savol-javoblar tarzida		8

2.5. Glossariy (Asosiy tushunchalar):

Korrupsiyaga qarshi komplayens nazorat (compliance control) tizimi - davlat organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etuvchi, korrupsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va chek qo'yish, qonun buzilish va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berishni o'zida mujassam etgan profilaktik tizim.

ISO 37001:2016 «Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimlari – Foydalanish uchun talablar va tavsiyalar» xalqaro standarti tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashning samarali tizimini yaratishning xalqaro usullarini o'zida jamlagan, korrupsiyaga qarshi mukammal boshqaruv tizimini yo'lga qo'yishga xizmat qiladigan xalqaro standartdir.

ISO 37001:2016 korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimini ishlab chiqish, joriy etish, qo'llab-quvvatlash, tahlil qilish va takomillashtirish uchun talablarni va rahbariy ko'rsatmalarni belgilaydi.

2.6. Mavzuning maqsadi: Korrupsiyaga qarshi kurash borasida institutsional, tashkiliy-huquqiy va idoraviy tizimlar rivojlanishi to‘g‘risida bilimlarga ega bo‘lish

2.7. Mavzudan kutilayotgan natijalar:

Mavzuni o‘zlashtirganidan so‘ng tinglovchi quyidagi bilimlarga ega bo‘ladi:

Korrupsiyaga qarshi kurash borasida nazorat tizimlari shakllanishi.

Parlament nazorati va uning subyektlari, Parlament nazorati shakllari

Prokuratura organlari faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish tartibi.

Jamoatchilik nazorati va uning subyektlari, asosiy prinsiplari, jamoatchilik nazoratining shakllari.

Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida prokuror, davlat moliyaviy, ma‘muriy, tadbirkorlik subyektlarini himoya etish sohasida nazorat tizimlari.

O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida bilimlarga ega bo‘ladi.

Mavzuni o‘zlashtirganidan so‘ng tinglovchi quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi:

“Parlament nazorati to‘g‘risida”gi 2016-yil 11-apreldagi Qonuni,

“Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi 2018-yil 12-apreldagi Qonuni,

“O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5843-son Farmoni,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2020-yil 29-iyundagi Farmoni PF-6013-son Farmoni talablari va b. xujjatlari talablarini qo‘llash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan strategiyaning maqsadlari bilan tanishish.

2.8. Ma‘ruza matni

O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish institutsional tizimini tushunishga keng va tor ma‘noda yondashish mumkin.

Bunda keng ma‘nodagi korrupsiyaga qarshi kurashish institutsional tizimi tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, Oliy Majlis Senati, Hisob palatasi, Prezident huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi, Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasi kabi organlar kirishi mumkin.

Horijiy davlatlarda shu kabi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olishdagi vakolatlari bevosita qonunda qayd etilganligi, qonunni qo‘llashda

kelib chiqishi mumkin bo'lgan munozalarni oldini oladi.

Milliy qonunchilikka muvofiq, siyosiy partiyalarni moliyalashtirish davlat byudjetidan amalga oshirilishi belgilangan.

Xususan, Saylov kodeksining 98-moddasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovga, mahalliy Kengashlarga saylovga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Birgina, 2019-yil 22-dekabr kuni o'tkazilishi rejalashtirilgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovga, mahalliy Kengashlarga saylovga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarga O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan 230,5 mlrd. so'm (taxminan 25 mln. AQSH dollari) miqdoridagi pul mablag'larini ajratilishi ko'zda tutilgan

“Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida”gi Qonunning 16, 18-moddalariga muvofiq, siyosiy partiya har yili qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda hamda tartibda moliya organlariga, davlat soliq xizmati organlariga, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi va Adliya vazirligiga hisobot davrida olingan hamda sarflangan moliyaviy va boshqa mablag'lar to'g'risida moliyaviy hisobot taqdim etishi shart, moliyaviy va boshqa mablag'larning kelib tushishi hamda siyosiy partiyalarning ulardan belgilangan maqsadda foydalanishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi amalga oshiradi.

Qayd etilganlardan kelib chiqib, korrupsiyaga qarshi kurashish institutsional tizimini takomillashtirish orqali Hisob palatasining imkoniyat va nufuzidan foydalanish maqsadida, shuningdek siyosiy partiyalarni moliyalashtirilishi yuzasidan qonunchilikka palataning mas'uliyatini oshirishga qaratilgan tegishli o'zgartirish kiritish maqsadga muvofiq.

O'zbekistonda Korrupsiyaga qarshi kurashish institutsional tizimi tarkibiga “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuni 7-moddasida qayd etilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi beshta davlat organlari:

1. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;
2. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;
4. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;
5. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;
6. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti hamda ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi – (6) Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi (shu jumladan hududiy komissiyalar) kiradi.

Qonunning qayd etilgan moddasiga muvofiq, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni qonun hujjatlariga muvofiq yuqorida qayd etilganidan boshqa davlat organlari ham amalga oshirishi belgilangan.

Biroq, qonunda **“boshqa davlat organlari”** jumlasida aynan qaysi organlari tushunilishi hamda ular qay tartib va asoslarda ushbu yo'nalishdagi faoliyatni

yuritishi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilmagan.

Qonunchilikdagi ushbu noaniqlik uni turlicha tushunish va sharhlashga sabab bo'lishi mumkinligini inobatga olgan holda ushbu norma takomillashtirilishini taqozo qiladi.

Horijiy mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish institutsional tizim tarkibiga "korrupsiyaga qarshi institutlar sifatida qayd etilmagan bo'lsada, korrupsiyani bartaraf etishga ko'maklashuvchi davlat idoralari - bu ba'zi mamlakatlarda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, odob-axloq qoidalari, yaxlitlik yoki davlat boshqaruvi yoki parlamentda aktivlar deklaratsiyalash ustidan nazorat qilish kabi maxsus tuzilmalar bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ayrim davlat organlari yoki nodavlat notijorat tashkilotlarining asosiy faoliyat yo'nalishi korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilmagan bo'lsada, ular o'z vazifalarini amalga oshirish jarayonida **korrupsiyaga qarshi kurashishga ko'maklashuvchi** bir qator davlat organlari va muassasalar sifatida tegishli funktsiya va vazifalarni amalga oshirishi e'tiborga molik.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakili instituti (Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakil-biznes ombudsman), Davlat soliq va bojxona qo'mitalari, Moliya vazirligi (vazirlikning Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi misolida), O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi o'zlariga yuklatilgan vazifalar bilan bir qatorda korrupsiyaga qarshi kurashish funktsiya va vazifalarini ham bajarishga ko'maklashib keladi (ta'kid bizniki).

Xususan, Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakil O'zbekiston Respublikasining **29.08.2017-yildagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil to'g'risida"**gi Qonunga muvofiq o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishiga doir qonun hujjatlarining davlat organlari tomonidan og'ishmay ijro etilishini o'rganish, tadbirkorlik subyektlarining faoliyati tekshiruvlarini o'tkazishning qonuniyligi monitoringini amalga oshirish, tadbirkorlik subyektlarining faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish faktlarining oldini olish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar ko'rish bo'yicha takliflar kiritish, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishiga doir qonun hujjatlarining buzilishiga yo'l qo'yilmasligi to'g'risida davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning mansabdor shaxslariga yozma ravishda ogohlantirishlar e'lon qilish huquqlarga ega.

Bu o'z navbatida ma'muriy organlar tomonidan tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish va xususiy sektorda korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi omillarni va xavf-xatarlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Bu boradagi nazariy ahamiyat kasb etuvchi masalalardan biri bu korrupsiyaga qarshi kurashish institutsional tizimi tushunchasiga nisbatan yagona yondashuvning mavjud emasligidir.

Shundan kelib chiqib bizning fikrimizcha, korrupsiyaga qarshi kurashish institutsional tizimi deganda korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish sohasiga rahbarlik qiladigan, muayyan munosabatlarni tartibga solish, huquqiy jihatdan ta'minlash, nazorat (monitoring) qilish, vakolatli organlarmuvofiqlashtirish maxsus vakolatlariga ega bo'lgan, davlat majburlov funksiyalarini amalga oshiradigan ixtisoslashtirilgan muassasalar, davlat organlari yoki tashkilotlar majmuasi tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini huquqiy poydevorini shakllantirish va tizimli ravishda takomillashtirish borishga qaratilgan ishlar olib borilmoqda.

Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan davlat siyosatining samaradorligini oshirish maqsadida **2020-yil 29-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-sonli Farmoni** qabul qilinadi.

Farmonga asosan O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi.

Barcha davrlarda korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish masalalari prokuratura organlari faoliyatida ustuvor ahamiyat kasb etib keladi.

Zero, Oliy Majlis Senatining 2020-yil 11-may kuni bo'lib o'tgan to'rtinchi yalpi majlisida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining prokuratura organlarining 2019-yildagi faoliyati to'g'risidagi hisobotida ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ko'rsatmalari asosida prokuratura organlarini korrupsiyadan xoli, chinakam xalq prokuraturasiga aylantirish, faoliyat samaradorligini tubdan oshirish borasida qator choralar ko'rilayotganligi, avvalo, halol, sadoqatli va professional xodimlar korpusini shakllantirishga doir kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilganligi yana bir bor ta'kidlab o'tildi.

Yoki, hisobotda qishloq xo'jaligi sohasida qonunlar ijrosi ustidan nazorat prokuratura faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligi ta'kidlandi.

Jumladan, nazorat tadbirlarida 22 mlrd. so'mlik don, 63 mlrd. so'mlik paxta, 3 mlrd. so'mlik mineral o'g'it, irrigatsiya tadbirlari uchun ajratilgan 1,7 mlrd. so'mlik byudjet mablag'i talon-toroj qilingani aniqlanib, qonuniy choralar ko'rilgan.

Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi parlament nazoratini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati tuzilmasida ixtisoslashtirilgan qo'mitalar tuzilganligi e'tiborga molik.

Ikkinchi bosqichda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatining huquqiy asosi mustahkamlandi, vakolatli organlar doirasi aniq belgilandi, bu boradagi faoliyatni muvofiqlashtiruvchi organ tashkil etildi va ushbu organ tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishning ustuvor yo'nalishlari davriy yig'ilishlarda ko'rib chiqilib, sohadagi dolzarb masalalarni hal etib kelinmoqda, aniq sohalarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish, amalga oshirish, xavf-xatarlarni aniqlash hamda

bartaraf etish yuzasidan aniq mezonlar shakllandi.

Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish masalasi bir qator normativ aktlarda belgilangan. Jumladan **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6257-son Farmoni** bilan mamlakat rivojlanishining bugungi bosqichida korrupsiya O‘zbekiston davlati va jamiyati taraqqiyoti uchun eng jiddiy xavf-xatarlardan biri ekanligi qayd etildi.

Farmon bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2021-2022-yillarga mo‘ljallangan Davlat dasturi tasdiqlandi. Dastur korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish, davlat xaridlari sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, korrupsiyaga qarshi kurashish tuzilmalari faoliyatini takomillashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro standartlarni joriy qilish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, hamda davlat organlari faoliyati ochiqligini ta’minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish masalalarini qamrab olgan.

Korrupsiya holatlarining har qanday ko‘rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish va unga qarshi ayovsiz kurashish barcha darajadagi davlat organlari rahbar va xodimlarining eng ustuvor vazifasi etib belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi to‘g‘risidagi nizomi Korrupsiyaga qarshi kurashish miliy kengashi majlisining 2021-yil 19-avgustdagi 4-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan. Milliy kengash korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi organ hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish maqsadida 2021-yil 18-noyabrda O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi.

Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi xodimlari o‘z vakolatlari doirasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining sabablari va shart-sharoitlarini o‘rganish hamda tahlil qilish maqsadida jazoni ijro etish muassasalariga moneliksiz kirishga, zarur hujjatlar bilan tanishishga haqliligi to‘g‘risidagi JPK norma kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi hamda Senati Reglamentlari to‘g‘risida» gi Qonunlari “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi milliy ma’ruzani ko‘rib chiqish” deb nomlangan 262-modda hamda 252- moddasi bilan to‘ldirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi har yili O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida milliy ma’ruza tayyorlashi, Milliy ma’ruza O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori tomonidan Qonunchilik palatasiga taqdim

etilishi belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 29-avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to‘g‘risida” gi Qonuni xam “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi milliy ma‘ruzani ko‘rib chiqish” deb nomlanga bilan to‘ldirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ–5177-son qaroriga asosida davlat xizmatchilarini korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvi va odob-axloq qoidalari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini doimiy oshirib borish qaratilgan.

So‘nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma‘rifiy asoslari yaratildi. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni** bilan tasdiqlangan strategiyaning maqsadlari sifatida: inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;

mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;

milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash;

adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;

ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;

milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;

mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish belgilandi.

Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashishni inobatga olib strategiyaning 83-maqsadi sifatida “Davlat xizmatida halollik standartlarini joriy etish, ularining daromad va mol-mulklarini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich yaratish belgilangan.

2.9. Mavzuga oid slaydlar, taqdimot materiallari (elektron shaklda)

2.10. Tarqatma materiallar

O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni

O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish maqsadida 2021-yil 18-noyabrda O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-6013 sonli Farmoni, O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-sonli qarori

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyundagi PF-6257-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2021-2022-yillarda Korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni

2.11. “Flipped class” uchun mediamateriallar (videoma’ruza, videorolik, “doodly” va boshqalar)

2.12. Mavzu bo‘yicha nazorat topshiriqlari

1. Korrupsiyaga qarshi qonun qabul qilinishi qaysi xalqaro xujjat asosida amalga oshirilgan?

2. Korrupsiyaga qarshi qonun qabul qilish kim tomonidan va nimaga asosan amalga oshirilgan?

3. Korrupsiyaga qarshi qonun bo‘yicha qaysi idoralar vakolatli organ sifatida belgilangan?

4. Korrupsiyaga qarshi qonunda qanday huquqiy institutlar mustahkamlangan?

5. Korrupsiyaga qarshi kurash borasida vazifalarni amalga oshirishda qaysi davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari jalb etilishi mumkin?

2.13. Test savollari:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 14-yanvardagi “Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunida himoya qilinuvchi shaxslar kimlar ko‘rsatilgan?

A. Surishtiruv va tergov organlari xodimlari, prokuratura organlari xodimlari, maxsus vakolat berilgan davlat organlarining tezkor bo‘linmalari xodimlari, maxfiylik asosida ko‘maklashish istagini bildirgan shaxslar, o‘z zimmlariga yuklatilgan vazifalarni hal etish uchun maxsus bilimlarga ega bo‘lgan mutaxassislar, Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar xodimlari

B. mansabdor shaxslar va ularning qarindashlari, OAV vakillari, bloggerlar, siyosiy partiyalar vakillari, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga tahdid soluvchi shaxslar, surishtiruv, tergov organlaridan va suddan yashirib yurgan, jinoiy jazodan bo‘yin tovlayotgan shaxslar, bedarak yo‘qolgan shaxslar va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslar, Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga ko‘maklashayotgan shaxslar

C. jabrlanuvchi va uning qonuniy vakili, guvoh, jamoat ayblovchisi va jamoat himoyachisi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, ularning himoyachilari va qonuniy vakillari, mahkum, oqlangan shaxs, o‘ziga nisbatan jinoyat ishi tugatilgan shaxs, fuqaroviy da’vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari,

ekspert, mutaxassis, tarjimon va xolis.

D. xizmatchilar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning xodimlari va boshqalar

(Asos: "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasi)

2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 14-yanvardagi "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunida himoya qilishni ta'minlovchi davlat organlari sifatida qaysi organlar ko'rsatilgan?

A himoya qilishni ta'minlash to'g'risida qaror qabul qiluvchi organlar, xavfsizlik choralari ta'minlovchi organlar, ijtimoiy himoya qilish choralari ta'minlovchi organlar.

B O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari,

C huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengashlar, Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari,

D ma'muriy nazoratni ta'minlovchi organlar, jazoni ijro etish muassasalari, huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatuvchi ixtisoslashtirilgan muassasalar

(Asos: "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasi)

3. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida" gi Qonunida ma'muriy organlar deganda kimlar tushiniladi?

a. ma'muriy ish yuritish jarayonida jismoniy va yuridik shaxslarga ko'rsatiladigan ta'sir choralari nazorat qilish vakolatiga ega manfaatdor shaxslar

b. ma'muriy ish yuritish davomida manfaatdor shaxslar tomonidan taqdim etilgan haqiqiy holatlar to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlarni asosli deb topishga vakolatli organlar

v. ma'muriy-huquqiy faoliyat sohasida ma'muriy boshqaruv vakolati berilgan organlar, shu jumladan davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek ushbu faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan boshqa tashkilotlar va maxsus tuzilgan komissiyalar

g. diskretion vakolatlarga ega manfaatdor shaxslar

(Asos: "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasi)

4. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot berayotgan shaxslar qanday organlar himoyasida bo'ladi?

A. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi hamda O'zbekiston Respublikasi

Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti;
V. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;

S. korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoralararo va hududiy komissiyalar
D. barcha davlat organlari.

Asos: (KQK to‘g‘risidagi Qonunning 28-moddasi)

5. Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi qaysi jarayonlardan iborat?

A. qonuniylik; fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi; ochiqlik va shaffoflik; tizimlilik; davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi; korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi; javobgarlikning muqarrarligini ta’minlashga qaratilgan jarayondan;

V. korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish imkoniyatini yaratadigan, korrupsiyaga sabab bo‘ladigan omillarni aniqlashga; korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish imkoniyatini yaratadigan loyihani qabul qilish oqibatlarini umumiy baholashga; normativ-huquqiy hujjatlarni qo‘llash jarayonida korrupsiya xususiyatiga ega xavflarning yuzaga kelishi ehtimolini prognoz qilishga; korrupsiyaga sabab bo‘lgan, aniqlangan omillarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqishga va choralar ko‘rishga yo‘naltirilgan jarayondan;

S. aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish; davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish; korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlashga qaratilgan jarayondan;

D. Davlat dasturlari va boshqa dasturlar qonunning qoidalari samarali ijro etilishini ta’minlash, korrupsiyaning holati hamda tendensiyalaridan kelib chiqqan holda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha kompleks va tizimli chora-tadbirlar ko‘rish maqsadida ishlab chiqish hamda amalga oshirishdan.

Asos: (KQK to‘g‘risidagi Qonunning 24-moddasi)

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6013-sonli Farmoniga asosan O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish uchun:

A. maxsus yurisdiksiyaga ega ixtisoslashgan idora;

B. barchasi to‘g‘ri;

C. ixtisoslashgan huquqni muhofaza etuvchi organ;

D. mas’ul bo‘lgan maxsus vakolatli davlat organi sifatida belgilangan.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6013-sonli Farmoniga asosan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi va uning hududiy idoralararo komissiyalari

- A. optimallashtirildi;
- B. O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi va uning hududiy kengashlari etib qayta tashkil etildi;
- C. Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi tarkibiga kiritildi;
- D. Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo‘yicha respublika kengashi tarkibiga kiritildi.

8. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi qanday huquqni muhofaza etish funksiyaga ega?

- A. korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bo‘yicha tezkor-qidiruv xarakatlarni amalga oshirish;
- B. korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bo‘yicha tergov xarakatlarini amalga oshirish;
- C. korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bo‘yicha ma‘muriy surishtiruvlar o‘tkazish;
- D. korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bo‘yicha dastlabki tergov faoliyatini amalga oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6013-sonli Farmoni 4 bandi

9. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi davlat organlari, tashkilotlari va ularning mansabdor shaxslariga ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan qaysi xujjatlarni kiritish vakolatiga ega?

- A. protest, taqdimnoma, qaror, ariza, ogohlantiruv;
- B. ogohlantirish, taqdimnoma va murojaatlar;
- C. so‘rov, amrnoma, xabarnoma, ko‘rsatma;
- D. talabnoma, murojaatnoma, so‘rovnoma, petitsiya.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6013-sonli Farmoni 4 bandi

10. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga IHRTning Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tarmog‘ining Istanbul harakatlar dasturi, hamda BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa xalqaro shartnomalari

qoidalarining bajarilishi bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda ushbu yo'nalishdagi faoliyatni muvofiqlashtirish bo'yicha qanday vazifa va vakolatlari yuklatilgan?

- A. xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashi ishchi organi
- B. maxsus yurisdiksiyaga ega ixtisoslashgan idora
- C. mas'ul bo'lgan maxsus vakolatli davlat organi
- D. O'zbekiston Respublikasi milliy koordinatori

11. O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi ishchi organi etib qaysi organ belgilangan?

- A. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi
- B. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi;
- C. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;
- D. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi

Mavzu bo'yicha kazuslar:

1. Davlat organi rahbari tashkilotda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni ishlab chiqish va bartaraf etish vazifasini takshilotning Xo'jalik bo'limiga yukladi. Xo'jalik bo'limi faqat moliyaviy munosabatlardagi xavf-xatarlarni ishlab chiqib tasdiqladi.

Savol: Mazkur holatda xavf -xatarlarni olidini olish bo'yicha yetarli ishlar amalga oshirilganmi?

- A) ha, yetarli
- B) yo'q, yetarli emas

2. Davlat tashkilotining korrupsiyaviy xavf -xatarlarni oldini olish bo'yicha me'yoriy xujjat ishlab chiqildi. Unda korrupsiyaga moyilligi yuqori bo'lgan lavozimlar qayd etilmagan.

Savol: Mazkur holatda xavf-xatarlarni olidini olish bo'yicha yetarli choralar amalga oshirilganmi?

- A) ha, yetarli
- B) yo'q, yetarli emas

3. Davlat tashkilotining korrupsiyaviy xavf -xatarlarni oldini olish bo'yicha me'yoriy xujjat ishlab chiqildi. Uni bajarish vazifasi texnik xodimga yuklatildi.

Savol: Mazkur holatda xavf -xatarlarni olidini olish bo'yicha yetarli choralar amalga oshirilganmi?

- A) ha, yetarli
- B) yo'q, yetarli emas

4. Davlat tashkilotining korrupsiyaviy xavf -xatarlarni oldini olish bo'yicha me'yoriy xujjat ishlab chiqildi. Unda, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olish faqat me'yoriy-huquqiy hujjat ekspertizadan o'tkazilishi bilan cheklandi.

Savol: Mazkur holatda xavf -xatarlarni olidini olish bo'yicha yetarli choralar amalga oshirilganmi?

- A) ha, yetarli
- B) yo'q, yetarli emas

10. O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA AXBOROT TEXNOLOGIYALAR

O'quv kursi nazariy, amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Ma'ruza darslari offlayn ta'lim asosida **flipped classroom** (teskari sinflar) usulida tashkil etiladi. Ya'ni, bunda ma'ruzachilar tomonidan oldindan vodcastlar (qisqa video ma'ruzalar) taqdim qilinadi va keyin offlayn savol-javoblar bo'lib o'tadi. (*Teskari sinf - yangi o'qitish metodi bo'lib, unga ko'ra tiglovchilar tomonidan yangi materialni asosiy o'zlashtirish jarayoni uyda amalga oshiriladi va auditoriyadagi vaqtida topshiriqlar, mashqlar, laboratoriya va amaliy tadqiqotlar, professor-o'qituvchining individual maslahatlari uchun ajratiladi*).

Amaliy mashg'ulotlar offlayn ta'lim shaklida topshiriqlar berish va tinglovchilarning topshiriqlarni bajarishlarini ta'minlashga qaratilgan video konferensiya va auditoriyalarda maslahat shaklida amalga oshiriladi. O'qitish jarayonida ta'limning aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, muammoli vaziyat, bahs-munozara, suhbat, muhokama, debat kabi zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalaniladi.

11. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Milliy normativ-huquqiy hujjatlar.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O'zbekiston, 2022-yil.
